

**O'ZBEKISTONDA JAMIYATNI MA'NAVIY YANGILANISHI JARAYONIDA
MADANIY MEROSGA MUNOSABAT**

Qosimov Xamidullo Abduqaxxor o'g'li

Namangan Davlat universiteti talabasi Yuridik fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi M.AU-21 guruh talabasi.

Temurbek Islomovich Ismoilov

Ilmiy rahbar: Namangan Davlat universiteti Milliy g'oya va huquq ta'limi kafedrasida dotsenti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda jamiyatni ma'naviy yangilanishi jarayonida madaniy merosga munosabat O'zbekistonda jamiyatni ma'naviy yangilanishi ya'ni Jamiyat ma'naviyati mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolati, ma'naviy va madaniy yuksalish, xalqimizning azaliy turmush tarziga aylangan ma'rifat va adolat mamlakatda demokratik jarayonlarni, Ma'naviy va madaniy merosni hamda madaniyatning, millat ehtiyojlari nuqtai nazaridan, barqarorligi va qadr-qimmatligidir, Madaniy merosga bo'lgan munosabat haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Jamiyat, ma'naviy yangilanishi, ma'naviy meros, ma'rifat, madaniy meros, meros-o'tmish, moddiy-madaniy obidalarini, an'ana, rivojlanish.

**ATTITUDE TO CULTURAL HERITAGE IN THE PROCESS OF SPIRITUAL RENEWAL OF
SOCIETY IN UZBEKISTAN**

Kasimov is the son of Khamidullo Abdukhakhor

Student of Namangan State University, Faculty of Law, M.AU-21 group student, National idea, spiritual foundations and legal education.

Temurbek Islamovich Ismailov

Academic supervisor: Associate Professor of the Department of National Idea and Legal Education of Namangan State University.

Abstract. In this article, the attitude to cultural heritage in the process of spiritual renewal of society in Uzbekistan is the meaning of spiritual renewal of society in Uzbekistan, that is, the spirituality of society is an important condition and guarantee of the country's development, spiritual and cultural growth, which has become an ancient way of life of our people. prosperity and justice are the stability and value of democratic processes in

the country, spiritual and cultural heritage and culture, from the point of view of the needs of the nation, information is provided about the attitude to cultural heritage.

Key words: Society, spiritual renewal, spiritual heritage, enlightenment, cultural heritage, heritage-past, material and cultural monuments, tradition, development.

Ona vatanimiz bo'lmish O'zbekistonda mustaqillika erishib, ma'naviy va ma'rifat masalariga katta ahamiyat bermog'imiz, mustaqillikni mustahkamlash vazifalari, ta'lim tarbiya sohasida sog'lom avlod, ma'naviy barkamol inson bo'lish azaliy qadriyatlarimizga e'tiborni, kelajak avlod bo'lmish yoshlarga ularning asl mohiyat-mazmunini anglatish bugungi kun masalaridan biridir. Har bir inson ma'naviyati undagi yuksak yaratuvchilik qudratining asosidir. Har bir zamon va makonda jamiyat taraqqiyotini insonlarning faol yaratuvchiligi belgilaydi, aksincha emas. O'zbekistonda jamiyatni ma'naviy yangilanishi ya'ni Jamiyat ma'naviyati mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, misol uchun qaysidir mamlakat o'z ma'naviy imkoniyatlariga tayanmay, odamlar ongi, tafakkurida ma'naviy, an'ana urf-odatlarini va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Ma'naviyat insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, uning ichki olamini boyitadigan, imon irodasi, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli kuchdir. "Har qaysi shaxs avvalo, yosh avlod qalbida jamiyat, el yurt, qo'yingki, ota-ona oldida ma'suliyat uyg'otish, imon va iroda tushunchalarin mustahkamlash hayotimizni yangilashning muhim shartidir".[1]

Bugungi kunda O'zbekistonda jamiyatni ma'naviy yangilanishi jamiyatdagi hamma narsa moddiy va ma'naviy boyliklar, insonlar hayoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish mahslidir. Insonlar faoliyati va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar Jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bular ishlab chiqarish, oilaviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik faoliyatlari va ularga moys keluvchi munosabatlardir. Jamiyat moddiy ishlab chiqarishsiz bo'lmaydi. Unda insonlarning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqaga bo'lgan ehtiyojlari qondiriladi. Jamiyatda jamiyatning tabiat bilan o'zaro ta'siri namoyon bo'ladi. Ma'naviy va madaniy yuksalish, xalqimizning azaliy turmush tarziga aylangan ma'rifat va adolat mamlakatda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishning kafolatidir. "Hozir O'zbekistonda Jamiyat taraqqiyotining eng asosiy muammosi insonlarning, ayniqsa yosh avlodning ma'naviy dunyosini shakllantirish va boyitish, ularni istiqlol mafkurasi asosida

tarbiyalash, o'zbek xalqining boy madaniy va ma'naviy merosi, qadriyatlari, an'analari va urf-odatlarini egallashlari uchun shart-sharoit yaratishdir. O'zbekistonda fuqarolik, huquqiy, demokratik, dunyoviy jamiyat barpo etilmoqda." [2] Jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, toifalar hamda milliy birliklar, ularning ijtimoiy hayoti va faoliyatini uyg'unlashtiradi. Barcha soha turli ijtimoiy toifa va guruhlar, milliy birliklar, siyosiy partiyalar va harakatlar, jamoat tashkilotlarning o'z siyosiy faoliyatini amalga oshiruvchi makondir. Ularning faoliyatlar shundan iborartki, Jamiyatdagi o'rnatilgan siyosiy munosabatlar asosida o'z siyosiy manfaatlarini amalga oshirishga qaratiladi. Ma'naviy sohada kishilar turli ma'naviy qadriyatlarni yaratadi, tarqatadi va Jamiyatning turli qatlamlari tomonidan o'zlashtiriladi. Bu soxaga adabiyot, san'at, musiqa asarlari bilan bir qatorda kishilarning bilim saviyasi, fan, axloqiy me'yor va umuman olganda, Jamiyathayotining ma'naviy mazmunini tashkil qiluvchi narsalar kiradi.

Bizga ma'lumki madaniy meros-o'tmish moddiy-madaniy boyliklari. Ajdodlardan avlodlarga qolgan xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyoti, san'at, me'morlik va hokazo namunalari. madaniy meros uni yaratgan xalq tarixi bilan iz-chil va mustahkam bog'langan bo'ladi; shu xalqning qadimgi davrlardan boshlab hozirgacha yaratgan va saqlanib kelgan adabiy-ma'naviy yodnomalari, moddiy-madaniy obidalarini o'z ichiga oladi. Xalqimiz islom madaniy merosiga ham taqvodorlikni tiklash nuqtai nazaridan emas, balki umuminsoniy madaniyatni, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o'zlashtirish, madaniyatimizni, axloqimizni rivojlantirishga foydasi teguvchi bilimlar sifatida, xalqning asriy ma'naviy tajribasini bilib olish va davom ettirish, rivojlantirish lozimligi nuqtai nazaridan yondashamiz. Madaniy merosning har bir konkret hodisasini, qadriyatini baholaganda, amalda foydalanmoqchi bo'lganimizda ularning O'zbekiston milliy istiqlolining ma'naviy asoslarini qay darajada mustahkamlay olishi, xalqlari- mizning umumjahon taraqqiyotining faol sub'ektiga aylanishiga xizmat qila olishi bosh mezon bo'lishi kerak. "Biz bugun ayrim davlatlardan moddiy nuqtai nazardan orqaroqda bo'lsak-da (bunga ko'pgina tarixiy ob'ektiv sabablar bor), ma'naviyat nuqtai nazaridan qaraganda ulkan G'urur bilan aytishimiz mumkin: buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan qadriyatlar va urf-odatlarga, nasl-nasabimiz va qonimizga singib ketgan buyuk hayotbaxsh kuchga egamiz. Bu boradagi ustunligimiz butun ma'rifiy dunyoda e'tirof etilgan. Ana shu qutlug' merosga munosib bo'lib yashash, bu beqiyos boylikni yanada boyitib-rivojlantirish, milliy o'zligimiz va umuminsoniy qadriyatlar asosida kelajagimiz binosini barpo etish muqaddas burchimizdir". [3] Mamlakatimizning ertangi kuni bo'lmish yoshlarimizni har tomonlama yetuk,

bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash ma'naviy va madaniy merosni asrab avaylash, mazmun mohoyatni tushnib yetish demakdir. O'zbekistonning bugun yoshlarga berayotgan ta'lim-tarbiya va ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, e'tibor ularni yanada bilim ko'nikmalarni oshib borishni ta'minlaydi. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish, ularni ajdodlarimizning boy merosi bilan tanishtirish, ota-ona va vatanga bo'lgan muhabbatlari cheksizdir. Jamiyatning ma'naviy rivojlanishi ham ehgiyojlar yuksalishi negizida kechadi. An'anaviylik kasb etgan jamiyatda ma'naviy ehgiyojlar yuksalishining yo'nalishi ko'proq insonning ichki dunyosiga qaratiladi, insonga nisbatan ichki ruhiy va axloqiy takomillashish talablari oshib boraveradi. Ma'naviy va madaniy merosni hamda madaniyatning, millat ehgiyojlari nuqtai nazaridan, barqarorligi va qadr-qimmatligidir. Demak, haqiqiy xalqchil madaniyat millatning rivojlanish ehgiyojlariga, istiqboliga xizmat qiladi. "Avesto" kitobida ajdodlarimizning necha ming yillik madaniy merosi o'z aksini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.A.Karimov "Yoshlar bugungi va ertangi hayotimizning hal qiluvchi kuchidir" Toshkent "Ma'naviyat" 2015-yil (85-bet)
2. Abdulhay Valiyev. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil referat
3. I.A.Karimov Ozod va obod vatan erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz 8-jild (20-bet)
4. Abdurahim Erkaev Ma'naviyat va taraqqiyot. Toshkent "Ma'naviyat" 2009-yil
5. S.H.Nosirxo'jayev, M.F.Lafasov S.A.A'zamxo'jayeva "Ma'naviyat asoslari" Toshkent 2016
6. Muhammadjon Imomnazarov "Milliy ma'naviyat bosqichlari" Toshkent 2010
7. <https://uz.wikipedia.org>
8. www.ziyouz.com kutubxonasi
9. <https://uz.denemetr.com>